

**Shukur Xolmirzayev asalarida izohtalab leksemalarning tavsifi**

Termiz davlat universiteti 2-kurs talabasi

Choriyev Nurbek Jumanazar o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev asarlarida, ayniqsa, hikoyalaridagi izohtalab so'zlarning sharhi tahlilga tortildi, shuningdek, yozuvchi ijodiga xos individual leksemalarning mazmuni sharhlandi. Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi ushbu durdona asarning asosini o'quvchilarga yetkazish hamda adabiyotshunoslik sohasiga oz bo'lsa-da hissa qo'shishdir.

Kalit so'zlar: milliy kolorit, bar, bo'tana, dovon, gallamoq, kalava, kayvoni, semantik qatlam, keraga, ko'pchimoq, ko'ch, individual uslub, nishab, paxsa.

Annotation: This article analyzes the interpretation of words that require explanation in the works of Shukur Kholmirzayev, especially in his stories, and also interprets the meaning of individual lexemes characteristic of the writer's work. The main goal of this study is to convey the essence of this masterpiece to readers and make a small contribution to the field of literary studies.

Keywords: national flavor, bar, butana, pass, gallamak, kalava, kayvoni, semantic layer, keraga, kupchimak, kuch, individual style, nishab, paxsa.

Аннотация: В статье проанализированы комментарии к словам, требующим толкования, в произведениях Шукура Холмирзаева, особенно в его рассказах, а также разъяснено значение отдельных лексем, характерных для творчества писателя. Основная цель данного исследования — донести до читателей суть этого шедевра и внести хотя бы небольшой вклад в область литературоведения.

Ключевые слова: национальный колорит, бар, бутана, перевал, галламак, калава, кайвони, семантический слой, керага, копчимок, коч, индивидуальный стиль, наклон, пaxca.

Shukur Xolmirzayev asarlarida izohtalab so'zlar alohida badiiy-estetik ahamiyatga ega bo'lib, ular yozuvchining til boyligi, xalqona ruh va milliy tafakkurni aks ettirishdagi mahoratini ko'rsatadi. Bunday so'zlar o'quvchidan muayyan darajada izoh, tafsir yoki kontekstual anglashni talab qiladi va shu orqali matnning chuqurroq idrok etilishiga xizmat qiladi.

Avvalo, izohtalab so'zlar yozuvchining milliy koloritni yaratish vositasidir. Xolmirzayev ko'pincha shevaga xos, qadimiy yoki kam qo'llaniladigan so'zlardan foydalanadi. Bu esa asarlarda tasvirlangan muhitni tabiiy va ishonarli qiladi. O'quvchi



bunday soʻzlarning maʼnosini anglash jarayonida xalqning turmush tarzi, urf-odati va dunyoqarashi bilan yaqinroq tanishadi. Quyidagi misollar bilan fikrlarimizni izohlaymiz:

Bar – chekka, qirra. Ust kiyimningg ikki yon etagi. Bola terga pishib ketgan edi, etak bari bilan yuzidagi terini artib olib, bizga salom berdi. N.Safarov, Tanlangan asarlar. Tabibiy yaktagina barini bosa-mosa irgʻib turdi. S.Siyoev, Yorugʻlik.

Bar urmoq – 1) ikki barini belbogʻiga qistirmoq. Ota-bola choponlarining etaklarini bar urib, qazuvga joʻnab ketdilar. J.Sharipov, Xorazm; 2) koʻchma maʼnoda: ishga astoydil kirishmoq. Aldar koʻsa etagini bar urib, boynikiga joʻnabdi. “Aldar koʻsa”.

Baridan tutqazmaslik, qochib yuradigan, tutqich bermaydigan kimsa yoki narsa haqida; boʻysunmaslik. Choʻl samoli esadi, Tutqich bermay baridan. N.Narzullaev.

Bir tomondan, yoshlikning zalvorli qadami, beqiyos koʻrki, u baxsh etgan tuygʻular, boshqa yoqdan esa, shu soʻlim faslning subhidam shamolidek bar tutqazmay oʻtib ketishi haqidagi oʻylar qoʻshilib, shoir koʻnglida hislar ummonini yaratdi. “Yoshlik”. (Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 26-betdan)

Boʻtana – 1. Loyqa, qum, tuproq kabilar aralashgan (suv haqida). Bir joyga toʻplanib, tutqun boʻlib turgan boʻtana suv qirgʻoqni buzib yubordi. E.Usmonov. Yolqin.

Soy va ariqlarda sumalakrang boʻtana shiddati oshib boradi, pishqiradi. S.Nurov, Narvon.

2. Loyqasimon, kir tusli, xira. Qiyom boʻtana boʻlmay, tiniq tusda boʻlishi lozim. K.Mahmudov, Oʻzbek taomlari.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 34-betdan)

Dovon – 1. Togʻ yoki tepalikning baland, ammo oshib oʻtsa boʻladigan qulay joyi; oshuv. Qashqar dovoni. Arpasiz ot dovon osholmas. Maqol.

Donoga ergashgan dovondan oshar. Maqol.

Bu vaqt ular Qoraqargʻa degan dovondan oshib, koʻz ilgʻamas, keng, tekis yaylovga chiqdilar. A. Muxtor, Asarlar.

Dovonning beliga chiqquncha Muhammad Sharif ham, eshak ham holdan toydi. Q. Mirzo, Olam goʻzal.

2. Koʻchma: keyingi ish va yutuqlarga yoʻl ochib beradigan ulkan ish; erishilgan yoki erishilajak qiyin marra. Oila qurish naqadar yuksak dovon ekanini Mahkam endi birinchi marta.. his qilmoqda edi. P. Qodirov, Uch ildiz.

Mavsumning dastlabki dovoni ortda qoldi. Gazetadan.

3. Koʻchma: xayoliy, ruhiy marra, maqsad, intilish. Ey koʻnglim, olamdan suyunchi soʻra, Dovonlar, togʻlardan yelday uchib oʻt. Mirtemir, Asarlar.



To‘lqinday asov bo‘l, sergak qalamim. Davru dovonlardan barkamol o‘zgil.
Jo‘raeva, Iqbol.

G.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 100-betdan)

Ikkinchidan, izohtalab so‘zlar badiiy obrazlarni yanada jonli va ta’sirchan qiladi. Oddiy adabiy til bilan ifodalash qiyin bo‘lgan nozik holatlar, ruhiy kechinmalar yoki milliy xususiyatlar aynan shunday so‘zlar orqali aniq va obrazli yetkaziladi. Natijada, qahramonlarning ichki dunyosi va xarakteri chuqurroq ochiladi. Masalan:

Gallamoq – 1. Kam qo‘llanadi: Biror ishni galma-gal, navbatma-navbat bajarmoq; navbatlashmoq.

2.Folklorda: Aldamoq, laqillatmoq. Boy qizjonning otasini aldanglar, Puli ko‘p, deb enasini gallanglar. “Hasan batrak”.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 1-betdan)

Kalava – o‘ram, dumaloqlangan ip; to‘r. Charxga bir necha marta bir tekis qilib o‘ralgan va charxdan chiqarib olib taxlangan bir o‘ram ip, ipak. Uch kalava ipak. Ustaxonaga eshik oldidagi arqonga ilingan qizil, sariq, surrang, binafsharang ip kalavalari tagidan bosh egib kiriladi. A. Muxtor, Opa-singillar.

Rang-barang ipaklarni kalavasidan chiqarib, charxda bir-ikki tovlab oladi-da, koptok qilib o‘rab qo‘yadi. Oydin, Hikoyalar.

Kalava chigallashmoq: hal etilishi lozim bo‘lgan masala, muammo chigal tus olmoq. ..Sabab va natijalar bir-biri bilan shunday aralashib, shunday chalkashib ketgan ediki, u oqni oqqa, qorani qoraga ajratmoqchi bo‘lgani sari, kalava badtar chigallashardi. P. Qodirov, Uch ildiz.

Kalavaning uchi hal etilishi, belgilanishi lozim bo‘lgan masala, muammo va sh. k. dan belgi beruvchi, uni aniqlash, belgilashga yo‘l ochuvchi narsa. Buyruqlar papkasiga qarab baho berib bo‘ladimi odamga Nima qilish kerak Kalavaning uchi bormi A. Muxtor, Tug‘ilish.

Turg‘un bu chigal kalavaning bir uchi Qodirjonga borib bog‘lanishini sezardi. O. Yoqubov, Tog‘ qizi.

Kalavasini (kalavasining uchini) yo‘qotmoq, nima qilish, nimadan boshlash kerakligini bilmay qolmoq, ishi chigallashgan holda qolmoq. Ahmad kalavasini yo‘qotib qo‘ygan telbadek anchagacha shaharda kezib yurdi. F. Musajonov, Himmat.

Bilasizmi, rais amaki, siz kasal bo‘lgach, kalavamning uchini yo‘qotib, shunchalik parishon bo‘ldimki.. Sh. Rashidov, Bo‘rondan kuchli.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 99-betdan)

Kayvoni – kayvonga oid; qoracha. 1. Yoshi ulug‘, ko‘pni ko‘rgan, ko‘p narsani biladigan. Ertasi kun peshinda Sanam xolani, kayvonilar qatori, bo‘lajak bir to‘yning



maslahatiga chaqirishgan edi. P. Qodirov, Qora ko‘zlar.

Kayvoni momo kelinni to‘ylovchilarga salom berdira berdi. T. Murod, Ot kishnagan oqshom.

2. Umuman, ko‘p narsa biladigan, uddaburon. O‘n bir arava to‘n orti.. sop qizlardan o‘n bitta kayvoni qiz qo‘shib.. aravaga mindirdi. “Oysuluv”.

3. Shevada: dasturxonchi. Ayollar sizni kayvoni bo‘lsin deyapti. T. Murod, Ot kishnagan oqshom.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 109-bet.

Uchinchidan, bu so‘zlar matnda semantik qatlamni boyitadi. Izohtalab birliklar ko‘pincha ko‘p ma’nodlilik, ramziy ma’no yoki yashirin ishoralarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli ular matnni bir qatlamli emas, balki ko‘p qatlamli qilishga xizmat qiladi. O‘quvchi esa bunday matnni o‘qishda fikrlashga, tahlil qilishga majbur bo‘ladi. Tubanda misollar orqali fikrlarmizni isbot etamiz:

Keraga – o‘tovning chetanga o‘xshatib ishlangan devori. Shamol kuchayib o‘kirmoqda, Sherali o‘tirgan o‘tov, yordam so‘rab yalinayotganday, titrab-tebrantar, keragalar zorlanayotganday g‘ijirlar edi. S. Anorboev, Sherali.

Shabada o‘tovning keragalarini asta g‘ichirlatadi, saraton yaylovning boshni aylantiradigan epkinini olib keladi. A. Muxtor, Chinor.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 59-betdan)

Ko‘pchimoq – 1. Shishmoq, bo‘rtmoq, shishib ko‘tarilmoq (yuz, qovoq va sh.k. haqida). Ko‘rishayotganda, ko‘zlari ham qizarib qolganini, qovog‘i odatdagidan ko‘pchibroq turganini ko‘rdi. P.Qodirov, Uch ildiz.

Bashorat yetib keldi... yum-yumaloq yuzi terlab, qizarib, ko‘pchib ketgan. A.Muxtor. Opa-singillar.

...osmondagi oylar ham, ko‘pchib yotgan yerlar ham – baribir seniki. T.Murod, Ot kishnagan oqshom.

2.Yetilib, shishib ko‘tarilmoq; yetilmoq (asosan xamir haqida). Maxsus avtomat mashina ko‘pchigan xamirni zuvala qilib, uzib tashlayapti. Gazetadan.

Vaqt yetib ko‘pchigan, albat, Tog‘oradan toshadi xamir. M.Ali, Boqiy dunyo. (Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 53-betdan)

Ko‘ch – ko‘chish paytida tashiladigan uy-ro‘zg‘or buyumlaridan iborat yuk. Bir mashina ko‘ch. Amatjon bir aravaga kelin-kuyovning ko‘chini ortib, darhol yo‘lga chiqdi. S. Siyoev, Avaz.

Ko‘chlarni yig‘ishtir! Aravani qo‘sh! Quvaga jo‘nagaymiz! P. Qodirov, Yulduzli tunlar.

Ko‘ch ko‘tarmoq; Ro‘zg‘ori bilan, o‘ziga tegishli narsa-buyumlar bilan boshqa joyga



ko'chmoq, ketmoq. Saodat turmush o'rtog'i bilan ko'chini ko'tarib, ko'p joylarda bo'ldi. Nazarmat, Jo'rlar baland sayraydi.

Lobar ko'chini ko'tarib ketganiga yigirma kuncha bo'ldi. H. G'ulom, Toshkentliklar. (Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 80-betdan)

Bundan tashqari, izohtalab so'zlar yozuvchining individual uslubini belgilaydi. Xolmirzayevning hikoya va qissalarida uchraydigan bunday leksik birliklar uning o'ziga xos badiiy ovozi shakllantiradi. Bu esa uni boshqa yozuvchilardan ajratib turuvchi muhim omillardan biridir. Jumladan:

Nishab – qiyalik, yonbag'ir; pastlik, past joy. 1. Yuzaning biror tomonga qiyaligi; qiyalik darajasi. Nishab yer. Yangi qamish bosib, loy bilan suvalgan tomining nishabi hovli tomonda. A. Muxtor, Opa-singillar.

2. Ko'chma: biror gap-so'z, ish-xarakterning mazmuni, yo'nalishi. -O'zim ham gapning nishabidan masalani tushungandim, – dedi Botirali Ne'matjonga. Gazetadan.

Nishabini o'ziga og'dirmoq (yoki to'g'rilamoq) - Foydani, tushumni o'z tomoniga qaratmoq. Gulnor.. Mirzakarimboy xonadoniga boshliq bo'lib kekkaysin, hech kim bilan so'zlashmasin, tug'sin, boylikning nishabini o'z tomoniga to'g'rilasin!.. U juda shayton xotin. Oybek, Tanlangan asarlar.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 72-betdan)

Paxsa – 1. Pishitilgan loydan ustma-ust bosib qurilgan devor va uning har bir qavati, qatori. Bir paxsa devor. Paxsa qo'ymoq (urmoq). Uch Kundan keyin eshigimizga qora otlq keldi. Paxsadan bo'ynini cho'zib qichqirdi. S.Siyoev, Yorug'lik. 2. Paxsadan iborat, paxsadan qilingan, qurilgan. Unda-bunda qurilgan paxsa uylarda go'yo hayot yo'qday. "Saodat".

Paxsa devorlar nurab, qator tuyalarning o'rkachlaridek baland-past bo'lib qolgan. H.G'ulom, Mash'al.

Qo'lini paxsa qilmoq, kaftini katta ochgan holda qo'lini tinglovchi tomon cho'zib, dag'dag'a bilan gapirmoq. Oqsoqol odamlarni klubga to'plab, va'zxonlik qildi. Qiziq, chol qo'lini paxsa qilib, shunaqangi gaplar aytdiki, hammasi qulog'imga mixlanib qoldi. O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi.

Bolta Muallim tezgina uning oldiga o'tib, qo'llarini paxsa qilib, allanimalarni tushuntira ketdi. N.Norqobilov, To'qnashuv.

3. Ko'chma: karra, daraja. Ganjaning kayfiyati yana bir karra ko'tarildi. E.Samandar, Daryosini yo'qotgan qirg'oq.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 35-betdan)

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev asarlarida izohtalab so'zlar shunchaki leksik birlik emas, balki badiiy tafakkurning muhim unsuri sifatida namoyon



bo'ladi. Ular yozuvchining milliy ruhga sodiqligini, xalqona ifoda vositalariga yaqinligini va til imkoniyatlaridan nihoyatda nozik foydalana olishini ko'rsatadi. Aynan shu so'zlar orqali asarlarda tasvirlangan voqelik yanada tabiiylashadi, qahramonlar nutqi hayotiylik kasb etadi va o'quvchi o'zini o'sha muhit ichida his qiladi. Bundan tashqari, izohtalab so'zlar o'quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol fikrlovchi subyektga aylantiradi. Chunki bunday so'zlarni tushunish uchun o'quvchi kontekstga chuqurroq kiradi, ma'nolarni izlaydi, tahlil qiladi va shu orqali asarni yanada teranroq anglaydi. Bu esa badiiy asarning estetik ta'sirini kuchaytiradi hamda o'quvchining tafakkur doirasini kengaytiradi. Yana bir muhim jihat shundaki, izohtalab so'zlar milliy madaniyat va tarixiy xotirani saqlash vositasi hamdir. Ular orqali unutilib borayotgan so'zlar, qadimiy iboralar va shevaga xos birliklar badiiy matnda yashab qoladi. Natijada yozuvchi nafaqat adabiy asar yaratadi, balki til va madaniyatni asrashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Холмирзаев Шукур. Танланган асарлар: Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2009.
2. Танланган асарлар: Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2020.
3. То‘хта Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O‘zbekiston nashriyoti. Toshkent-2002.
4. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish . Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent- 2004.